

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 330.3 (575.1)

YULDOSHEV ULUG‘BEK ASQAR O‘G‘LI

**EIZ VA IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB
ETISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

5A230603- “Investitsiyalarni boshqarish” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD. D.A. Ismailov

Toshkent – 2019

Magistrlik dissertatsiya ishida O'zbekiston Respublikada erkin iqtisodiy zonalarini mazmuni, ularga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy asoslari, erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, erkin iqtisodiy zonalarini rivojlanish bosqichlari yoritib berilgan. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarining faoliyati, ulardagi rag'batlantirish omillari va erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilayotgan xorijiy investitsiya loyihalarining amaldagi holati tahlili, mazmuni, maqsadi hamda zarurligi ochib berilgan va erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

In the dissertation thesis describes the stages of the development of free economic zones in Uzbekistan using the free economic zones, the legal bases for attracting foreign investment, the experience of developed countries in the development of free economic zones. The country has developed an analysis of the current situation, the content, purpose and necessity of foreign investment projects in the functioning of free economic zones, their incentives and the free economic zones, and elaborated scientifically-practical recommendations and recommendations for the development of free economic zones.

Magistrlik dissertatsiyasi «Bank ishi» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 20-sonli bayonnoma «14» 11/10/16 2019 yil.


Ilmiy rahbar: PhD. D.A. Ismailov



imzo

sana

Magistr: U.A. Yuldoshev



imzo

sana

«Himoyaga tavsiya etiladi»

«Bank ishi» kafedراسi mudiri,

PhD. U.Sh. Duskobilov

«07» 11/10/16 2019 y.

Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi 2019 yil «27» 11/10/16 soat 14⁰⁰ da
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ERKIN IQTISODIY ZONALARGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	9
1.1. Erkin iqtisodiy zonalarining mazmuni va vujudga kelishi.....	9
1.2. Erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalar jalb qilishning huquqiy asoslari.....	16
1.3. Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	22
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	33
II BOB. ERKIN IQTISODIY ZONALARGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH VA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH TAHLILI.....	35
2.1. O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi va ularning faoliyati tahlili.....	35
2.2. Mamlakatdagi erkin iqtisodiy zonalar va ulardagi rag'batlantirish omillari tahlili.....	52
2.3. Erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilayotgan xorijiy investitsiya loyihalarining amaldagi holati tahlili.....	60
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	66
III BOB. ERKIN IQTISODIY ZONALARGA XORIJIY INVESTITSİYALOIYIHALARINI AMALGA OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	68
3.1. Erkin iqtisodiy zonalarga investorlarni jalb qilishdagi mavjud muammolar.....	68
3.2. Erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo'llari.....	77
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	81
XULOSA.....	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	
ILOVALAR	

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi eng avvalo, respublikamizga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, ularni rivojlantirishning jahon tajribasini o'rganish va O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish holati tahlilini o'rganib vujudga kelgan muammolar hamda ularni hal etish yo'llarini bayon qilish bilan xususiyatlanadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishishning muhim yo'nalishlaridan biri barcha ichki manbalardan unumli foydalanish hamda erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishdir.

Mamlakatimizda keying yillarda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish siyosatini amalga oshirish va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarib, xorijga eksport qilish va shuningdek, import o'rnini bosuvchi yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni joriy qilishda erkin iqtisodiy zonalardan foydalanish, shuningdek, mamlakatimizda "ochiq eshiklar siyosatini" amalga oshirish hamda xorijiy investorlarni jalb qilish borasida rivojlangan davlatlarning, ayniqsa, jahon xo'jaligida tezkor sur'atlarda rivojlangan mamlakatlarning, jumladan, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya kabi mamlakatlarning tashqi savdo-sotiq siyosati tajribalaridan unumli foydalanish, milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyotiga ijobiy samara beradi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizni rivojlantirishda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish orqali mamlakatning tashqi savdo - sotiq jarayonini va eksport salohiyatini yuksaltirish masalasi, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos jihatlarini hisobga olishni, ayniqsa, jahon iqtisodiyoti amaliyotida to'plangan tajribalar va xalqaro qonun - qoidalar asosida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilish borasida va ularni tartibga solish usullarini yanada takomillashtirish zarurligini talab etadi. Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda va undagi faoliyatlarni samarali olib borishda xorij mamlakatlarining tajribalaridan va ularning usullaridan unumli foydalanish hozirgi kunning muhim